

HINDISTON SAFARI: BOBURIYLAR MEROSI IZIDAN.

Yulduz Zayniyeva

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) – buyuk sarkarda, shoir, davlat arbobi va tarixchi sifatida O‘zbekiston hamda Hindiston tarixida alohida o‘rin egallaydi. U Farg‘ona vodiysi Andijonda tug‘ilib, o‘zining siyosiy faoliyatini Movarounnahr hududida boshlagan. Boburning shaxsiyati nafaqat o‘z davri, balki keyingi asrlarda ham xalqaro miqyosda e‘tirof etilgan. Bobur avvalo o‘zbek xalqining farzandi, ma‘rifatparvar shoir, buyuk olim sifatida qadrlanadi. U Amir Temurning avlodi, Shahrisabzlik Sohibqiron Amir Temur merosxo‘ri, u yoshligidan siyosat maydoniga kirib, Samarqand taxti uchun kurashgan tarixiy shaxs sifatida xotirada muhrlanib qolgan.

Boburning siyosiy faoliyati Movarounnahrdagi siyosiy beqarorlik va ichki nizolar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lsa-da, u xalqni birlashtirish, markazlashgan davlat barpo etishga intilgan. Shuningdek, uning “Boburnoma” asari o‘zbek adabiyoti, tarixshunosligi va tilshunosligi uchun bebaho manba hisoblanadi. Unda nafaqat voqealar, balki xalq hayoti, urf-odatlar, tabiiy manzaralar haqida qimmatli ma‘lumotlar berilgan.

Zahiriddin Bobur Hindistonda buyuk sulola – Boburiylar imperiyasiga asos soldi. 1526-yilda Panipat jangida g‘alaba qozonib, Dehli sultonligi o‘rnida yangi imperiya barpo etdi. Bu sulola uch asrdan ortiq davom etdi va Hindiston tarixida chuqur iz qoldirdi. Boburiylar davrida ilm-fan, madaniyat, me‘morchilik va san‘at yuksak taraqqiyotga erishdi. Jumladan, Agra, Dehli, Lahor kabi shaharlarda bunyod etilgan ko‘plab inshaotlar hind-islom uyg‘unligining yorqin namunalaridir.

U Hindistonda ham o‘zining shaxsiyati bilan yuksak qadrlangan. U o‘zbekona soddalik, adolat va ilmga muhabbat bilan elni boshqargan. Uning avlodlari – Humoyun, Akbar, Jahongir, Shoh Jahon va Aurangzeb Hindiston tarixida mashhur hukmdorlar sifatida nom qoldirdilar.

Ajdodimiz Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari qoldirgan ulkan ilmiy, madaniy va me‘moriy merosni chuqurroq o‘rganish maqsadida bir guruh boburshunos olimlar Hindistonga safar uyushtirishdi. Ushbu safar “O‘zbek, rus, ingliz tillarida Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasining yangi nashrini yaratish” nomli, AL-7723061982-shifrli loyiha doirasida amalga oshirildi.

Ushbu loyiha doirasida Hindistonlik olimlar bilan uchrashuvlar, muzey va kutubxonalarga tashriflar, Boburiylar merosini o‘rganish va yangi ilmiy materiallarni

yig‘ish rejalashtirilgan edi. Ushbu ekspeditsiyada Xalqaro Bobur jamoat fondi vakili, sinxron tarjimon X.Shamsiyeva, O‘zbekiston Milliy universiteti professori, loyiha rahbari H. Boltaboyev, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Temuriylar tarixi davlat muzeyi katta ilmiy xodimi, tarix fanlari doktori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, professor A.Madramimov, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori Z. Teshaboyeva, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklor instituti yetakchi ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent B. Rajabova, shuningdek O‘zMU dotsenti D. Kazakbayeva, O‘zR FA Temuriylar tarixi davlat muzeyi Manaviyat va ma‘rifat bo‘lim boshlig‘i A. Sharipov va kamina, Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU tayanch doktoranti Y. Zayniyevalar ishtirok etdilar.

Safarimizni Dehli shahridan boshladik. 2025-yil 24-avgustda bizni Indira Gandhi nomidagi Dehli xalqaro aeroportida katta samimiyat bilan kutib olishdi. Ularning an‘anasiga ko‘ra, eng ehtiromli mehmonlarga gulchambar taqdim etishar ekan. Bo‘ynimizga taqilgan gulchambarlar bizga yuksak hurmatni bildirdi va iliq kayfiyat ulashdi. Shundan so‘ng bizni Hindiston Islom madaniyati markaziga qarashli mehmonxonaga joylashtirishdi. Atrofdagi go‘zal manzara, keng va toza ko‘chalar bizga Hindiston haqida yaxshi taassurot qoldirdi.



25-avgust kuni ertalab delegatsiyamiz Dehli Milliy muzeyga (National Museum) yo‘l oldi. Bu yerda Boburiylar davridagi nodir qo‘lyozmalar, Qur‘oni Karim nusxalari va Boburiylar davriga tegishli oltin va kumush tangalarni ko‘rdik. Qo‘lyozmalarni qo‘riqlash va saqlash darajasi bizni hayratga soldi.

Safarimiz davomida biz uchun eng muhim tadbirlardan biri “India Islamic Cultural Centre”da bo‘lib o‘tdi. 25-avgust kuni bu yerda “The Uzbekistan Academicians” (“O‘zbekiston akademiklari” nomli ilmiy simpozium tashkil etildi. Tadbirdan oldin biz

mehmonlarga atab tayyorlangan mazali hind milliy taomlaridan bahramand bo‘ldik. Milliy taomlarning xilma-xilligi va o‘ziga xosligi bizni hayratlantirdi.

So‘ngra Sulton Qobus kutubxonasida ilmiy uchrashuv boshlandi. O‘zbek va hind olimlari o‘zaro fikr almashib, Boburiylar merosini o‘rganish, qo‘lyozmalarni saqlash masalalari yuzasidan muhim mulohazalar bildirishdi. Bizning o‘zbek olimlarimiz har biri so‘zga chiqib, Boburiylar merosi, u borasida olib borilayotganyotgan ishlar, ilmiy yangiliklar haqida gapirishdi. Bundan tashqari markaz direktori janob Salmon Xurshid (Mr. Salman Khurshid) ham o‘zining “Sons of Babur: A Play in Search of India” (“Bobur farzandlari: Hindistonni anglash”) asarini boburshunos olimlarga tanishtirdi. Bu ilmiy muloqot nafaqat yangi bilimlarni berdi, balki o‘zaro hamdo‘stlik va hamkorlikni mustahkamladi. Kelajakda Temuriylar va Boburiylarga tegishli asarlarni tarjima qilish va o‘zbek va hind xalqiga tanitishga kelishib olindi.

Uchrashuvdan so‘ng biz Dehlidagi Shayx Nizomiddin Avliyo maqbarasini ziyorat qildik. Bu muborak maskan “Boburnoma”da ham “Shayx Nizom avliyo mozori” nomi bilan tilga olingan. Ziyorat davomida biz nafaqat bu muqaddas joyning tarixiy va ma‘naviy ahamiyatini his etdik, balki Bobur asarlarida tilga olingan manzillar bilan bevosita yuzmayuz bo‘lish baxtiga muyassar bo‘ldik.

Ilmiy-ijodiy guruhimiz safarining uchinchi kuni 26-avgustda Aligarh shahriga yo‘l oldi. Biz bu yerda mashhur Aligarh Muslim Universityga tashrif buyurdik. Universitetning ilmiy merosi bilan tanishish jarayonida bizga alohida taassurot qoldirgan maskanlardan biri — Mavlono Ozod kutubxona-muzeyi bo‘ldi. Mazkur kutubxonada Bobur va Boburiylar davri merosiga oid qimmatli qo‘lyozmalar, san‘at asarlari va tarixiy hujjatlar saqlanmoqda. Jumladan, Mirzo Ulug‘bekning mashhur “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asari, Boburiy malikalar portretlari, Boburiy hukmdorlar farmonlari, shuningdek, Qur‘oni Karimning qadimiy nusxalari ham mavjud. Shuningdek, biz universitetning qadimiy qo‘lyozmalarni restavratsiya qilish bo‘limiga tashrif buyurdik. Bu yerda qo‘lyozmalarni qayta tiklash va muqovalash jarayonlari, shuningdek, bo‘limning ilmiy-amaliy faoliyati bilan yaqindan tanishdik. Bundan tashqari, Universitetda ko‘zi ojiz talabalar uchun yaratilgan kutubxona va undagi sharoitlar tahsinga loyiq. Tashrif yakunida universitetning “Muzeyshunoslik” kafedrası (Department of Museology) qoshida tashkil etilgan muzeyga ham tashrif buyurdik va uning boy ekspozitsiya zallari bilan yaqindan tanishdik. Shundan so‘ng biz Agra shahriga yo‘l oldik.

27-28-29 avgust kunlari Agradagi ilmiy safar davomida Hindistonning eng mashhur tarixiy yodgorliklariga tashrif buyurildi. Ulardan eng avvali — dunyo tan olgan sevgi ramzi, oppoq marmardan bunyod etilgan Toj Mahal bo‘lib, uning go‘zalligi va me‘moriy

mukammalligi alohida taassurot qoldirdi. Bu obida Temuriylar uslubiga xos nafis naqshlar, nozik o‘yma bezaklar va simmetriyadagi mukammallik bilan ajralib turadi.

Keyingi manzil — Agra Fort (Qizil Qal’a) bo‘lib, bu yerda Bobur yashagan va vafot etgan. Qal’aning mustahkam devorlari, haybatli qiyofasi va ichkaridagi tarixiy inshootlar — xususan, Jahongir saroyi va Bobur davriga oid darvoza — Temuriylar me’moriy maktabiga xos g‘isht terish uslubi va naqshlari bilan e’tiborni tortadi. Bundan tashqari, Agra Fort ichidagi bir qancha inshaotlarni ko‘rib chiqdik, jumladan, “Devoni Xos”, “Devoni Om”, “Ayollar majsidi”, “Uzum bog‘i”, “Shish Mahal” va boshqalar.

Tarixchi olimlarimizning ta’kidlashicha, ushbu obidalarni barpo etishda ko‘plab Samarqand va Buxoro ustalari ham qatnashgan. Aynan shu sababli, Hindiston hududidagi mazkur inshaotlarda Markaziy Osiyo me’moriy maktabining an’analarini yaqqol namoyon bo‘ladi. Nafis koshinkorlik, gumbazli inshootlar, geometrik va islomiy naqshlar — bularning barchasi Temuriylar davri merosini yodga soladi. Ayniqsa, devorlardagi naqsh va bezaklarda Temuriylar davri ruhini his etish mumkin. Mazkur maskanlarning barchasi Hindistonning boy madaniyati va tarixidan dalolat beribgina qolmay, balki Temuriylar davri me’moriy an’alarining Hindistonda ham davom etganidan guvohlik beradi.



Safarning navbatdagi kunlari Fatehpur Sikri, Baland Darvozaga borildi. Mehtab bog‘i, Bog‘i Gulafshon, Itimat ut-Davla, Maryam uz-zamon inshootlari ko‘zdan kechirildi. Shuningdek, buyuk shoir va sarkarda Bobur dafn etilgan Ram bog‘i hamda Akbar maqbarasi ziyorat qilindi. Sayohat davomida Jamna daryosi bo‘yida bo‘linib, uning

yaqinida joylashgan Chinika Ravzasi ham ko‘rib chiqildi. Ensiklopediya uchun zarur ma‘lumotlar, foto suratlar olindi va ajoyib taassurotlar, yangi bilimlar bilan Dehli shahriga qaytildi.



30-avgust kuni ertalab Hindiston Islom madaniyati markazi tashabbusi bilan “Mirzo Abdulqodir Bedil – Hind madaniyati va insonparvarlik uyg‘unligining ifodasi” (“Mirza Bedil as the Quintessence of Composite Indian Culture and Humanism”) mavzusida xalqaro anjuman bo‘lib o‘tdi. Unda Bobur ekspeditsiyasi a‘zolari – prof. H. Boltaboev, f.f.d. Z. Teshaboeva va f.f.n. dotsent B. Rajabova ma‘ruza bilan qatnashdilar. Anjuman yakunida ularga Markaz tomonidan maxsus sertifikatlar taqdim etildi. Shundan so‘ng shu kuni Lo‘diy bog‘iga borildi. Bog‘ning manzarasi nihoyatda chiroyli bo‘lib, Bobur ham o‘z asarlarida ushbu bog‘ni tilga olgan. Shuningdek, Bahlul Lo‘di maqbarasi ziyorat qilindi. Bog‘ hududida Muhammadshoh, Sikandar Lodi (Iskandar Lodi) maqbaralari, shuningdek *Shish Gumbad* va *Bara Gumbad* nomli tarixiy obidalar mavjud.

Shundan so‘ng Humoyun maqbarasi, uning hududi yaqinida, 2024-yilda Rahim Og‘a xon madaniy fondi tomonidan ochilgan muzey hamda Sunder bog‘i ko‘zdan kechirildi. Mazkur muzeyda Boburiylar davri, xususan Humoyunning hayoti va faoliyati haqida qimmatli ma‘lumotlar taqdim etilgan. Shuningdek, “Boburnoma” asaridagi ko‘plab miniatyuralar elektron shaklda namoyish etilgan.

2025-yil 24–31-avgust kunlari amalga oshirilgan Hindistonga ilmiy-ijodiy safar biz uchun katta tajriba maktabi bo‘ldi. Dehlidagi milliy muzeylar, Islom madaniyati markazi, Shayx Nizomiddin Avliyo maqbarasi, shuningdek, Aligarh Muslim Universitidagi kutubxona va muzeylar bilan tanishish jarayonida biz Bobur va Boburiylar merosining naqadar boy va rang-barang ekaniga guvoh bo‘ldik.

Safar davomida nafaqat tarixiy qo‘lyozmalar, san‘at asarlari va nodir manbalarni ko‘rdik, balki hind olimlari bilan bevosita muloqot qildik, ilmiy hamkorlik istiqbollari muhokama qilindi. Ayniqsa, qo‘lyozmalarni restavratsiya qilish jarayoni va ko‘zi ojiz

talabalar uchun Braille bo‘limida olib borilayotgan ishlarning guvohi bo‘lish bizda katta taassurot qoldirdi.

Mazkur safar o‘zbek va hind olimlari o‘rtasida hamkorlikni yanada mustahkamlash, Bobur va Boburiylar merosini chuqurroq o‘rganish hamda bu borada yangi loyihalarni amalga oshirish uchun muhim qadam bo‘ldi.

Bobur ikki yurt – O‘zbekiston va Hindiston tarixini bog‘lovchi ulkan tarixiy shaxs. U Movarounnahrda siyosiy yetakchi, Hindistonda esa buyuk imperiya asoschisi sifatida tarixda abadiy qolgan. Bugun ham Bobur o‘zbek xalqining milliy g‘ururi va Hindiston tarixining muhim sahifasi sifatida yod etilishiga yana bir bor amin bo‘ldik. Assalomu alaykum varahmatullohi va barakotuh!